

UO`K 027.021(045)(575.1)

## **OLIV TA'LIMDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA AXBOROT-RESURS MARKAZLARINING ILMIY, INNOVATSION FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH**

**Pirmedova Xaytgul Muxammedovna**

*Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazi direktori, 3-darajali adliya maslahatchisi*

### **Annotatsiya**

*Mazkur maqolada oliy ta'limda raqamlashtirish davrida Axborot-resurs markazlari faoliyati o'z dolzarbligini saqlab qolishda olib borilishi zarur bo'lgan vazifalar bo'yicha takliflar kiritilgan. Zamonaviy Axborot-resurs markazlarida faoliyatini tubdan o'zgartirishning asosiy vositalari yangilik, transformatsiya va ijobiy natijalarga erishishning mumkin bo'lgan ilmiy, innovatsion vazifalar ko'rsatib o'tilgan.*

### **Kalit so'zlar**

*transformatsiya, ilmmetriya, innovatsiya*

### **Abstract**

This article includes proposals on tasks that must be carried out to maintain the relevance of the activities of Information Resource Centers in the era of digitization in higher education. The main means of radically changing the activities of modern Information Resource Centers are shown, scientific and innovative tasks that can achieve innovation, transformation and positive results.

### **Keywords**

*transformation, science, innovation*

Axborot-resurs markazlari (keyingi o‘rinlarda – ARM) oliy ta‘lim muassasasining asosiy bo‘linmalaridan bo‘lib, oliy ta‘lim muassasalarining ta‘limiy, ilmiy, ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatida faol ishtirok etadi.

Kelajak avlodni bilimli va malakali etib tarbiyalash, jahon standartlariga mos mutaxassislar tayyorlash maqsadida ta‘lim tizimi izchil rivojlantirilmoqda. Oliy ta‘lim sohasidagi dastlabki islohotlar, avvalo, yoshlarni oliy ta‘limga qamrovni oshirish, oliy ta‘lim muassasalarining moliyaviy holatini yaxshilash, professor-o‘qituvchilarni moddiy qo‘llab-quvvatlashga qaratildi.

Zamonaviy bilimli va yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, ilg‘or ta‘lim texnologiyalari asosida ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktyabr 5847-son qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” qabul qilindi.

Konsepsiyada oliy ta‘lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta‘lim muassasalariga qabul qilish darajasini 50 foizdan ko‘proqqa yetkazish; sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish, respublika oliy ta‘lim muassasalarini xalqaro e‘tirof etilgan tashkilotlar reytingida (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking) ro‘yxatning dastlabki 1000 ta o‘rinlariga kiritish. Jahon universitetlari), oliy ta‘lim muassasalarining mustaqilligi, oliy ta‘lim muassasalarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalari, oliy ta‘limning investitsion jozibadorligini oshirish, xorijiy ta‘lim va ilmiy texnologiyalarni jalb etish, kabi bir qancha vazifalar belgilandi.

Oliy ta‘lim muassasasining asosiy maqsadi kelajak avlodni bilimli va malakali etib tarbiyalash, jahon standartlariga mos mutaxassislar tayyorlash ekan buni ARMning ishtirokisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun avvalom bor har bir ta‘lim muassasasi Axborot-resurs markazlarining moddiy texnik bazalarini mustahkamlash, dasturiy ta‘minot, ish faoliyatini avtomatlashtirish, RFID texnologiyalarini joriy qilish, ta‘lim muassasasi yo‘nalishiga mos o‘quv va ilmiy, mahalliy va xorijiy adabiyotlari bilan ta‘minlash, jahon elektron ta‘lim bazalaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratish, ARMda zamonaviy xizmat turlarini joriy etish, kunu-tun faoliyat yuritish imkoniyatini yaratish, masofadan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lgan elektron kutubxonalar yaratish, mavjudlarining elektron fondini boyitish, ilg‘or oliy ta‘lim muassasalari kutubxonalari faoliyati bilan yaqindan tanishish, o‘rganish, o‘zimizda ilg‘or tajribalarni joriy etish maqsadida xodimlarning xorijiy oliy ta‘lim muassasalari kutubxonalarida malakasini oshirish, xorijiy oliy ta‘lim muassasalaridan mutaxassislar taklif etilgan holda konferensiyalar, uchrashuvlar, mahorat darslari o‘tkazish zarur.

Hozirgi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik o‘zgarishlar zamonida ARM larining faoliyatiga ham jiddiy va yangicha yondashuvni talab etadi. Axborot-resurs markazlari faoliyatini avtomatlashtirish va yangi texnologiyalarni joriy etish ularning faoliyatini yangi bosqichlarga olib chiqishga to‘g‘ri keladi.

Hozirgi zamon axborot-resurs markazlari an’anaviy kutubxonachilikni saqlagan holda axborot davriga mos ish olib borishlari talab etiladi va ular ta‘lim muassasalarining o‘quv, ilmiy va ma’naviy-ma’rifiy faoliyatini axborot bilan ta‘minlash vazifasini bajaradi.

ARM lari OTM ning ilmiy faoliyatini yuksaltirishda faol ishtirok etishlari zarur. Bunday faoliyatini amalga oshirishda ARMLari o‘z faoliyatiga OTM ilmiy salohiyatini oshirishda axborot, ta‘lim, ilmmetriya jarayonida ishtirok etish, monitoring yuritish vazifalarini olib borish zarur.

ARM xodimlari ARM ida mavjud bo‘lgan o‘quv, ilmiy, shuningdek ilmiy bazalar Scopus, Web of Science va boshqa jahon elektron ta‘lim bazalari to‘g‘risida foydalanuvchilarga axborot berib borishni yo‘lga quyish kerak. Ma’lumot yetkazishda foydalanuvchilarning toifasiga ham e‘tibor qaratish, ya’ni professor-o‘qituvchi va ilmiy tadqiqotchilar, talabalar, ularning talablariga mos ma’lumotlar berib borish. Hozirgi zamonda ma’lumotlarni foydalanuvchilarga yetkazishning eng zamonaviy yo‘llarini tanlash, ARM saytlari va ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalari orqali yetkazish.

Ma’lumotlar yetkazilgandan keyin, foydalanuvchilarni o‘quv, ilmiy, shuningdek ilmiy bazalar Scopus, Web of Science va boshqa jahon elektron ta’lim bazalaridan foydalanishni muntazam ravishda o‘rgatib borish, har xil seminar, vebinar, treninglar tashkil etish zarur.

OTM ilmmetriya jarayonida ARM ishtiroki juda zarur omillardan hisoblanadi. ARM saytlarida doimiy ma’lumotlar berib borish, professor-o‘qituvchilar, talabalar, ilmiy tadqiqotchilar talablariga mos treninglar, seminarlar o‘tkazish, har bir foydalanuvchiga individual yondashish, shuningdek OTM majlis va kengashlarida hisobotlar berish.

OTM olimlarining nashr faolligining monitoringini yuritish. Bu juda murakkab vazifa bo‘lib, ilmmetrik bazalarda OTM olimlarining nashrlarini yig‘ib, tizimlashtirib, tahliliy ma’lumotlarni OTM rahbariyatiga taqdim etish. ARM larida OTMning ilmmetrik ko‘rsatkichlari doim bo‘lishi zarur.

OTM ilmmetrik ko‘rsatkichlarini, har bir olim maqolalarini ARM ijtimoiy tarmoqlarida e’lon qilib borish, eng faol olimlarni rag‘batlantirish bo‘yicha rahbariyatga takliflar kiritish.

Raqamlashtirish va raqamli kutubxona, internet, elektron ma’lumot almashish davrida ARM lari kutubxonachilariga o‘z vazifalarini innovatsion, kutubxona marketingi, shuningdek strategik rejalashtirish asosida olib borishlari zarur.

ARM larda ilmiy, texnik, uslubiy innovatsion faoliyat turlari:

- kitobxonlikni, ilmni targ‘ib qiluvchi loyihalar tashkil etish;
- ijtimoiy faollik:
- ARM saytini va ijtimoiy tarmoqlarda sahifalarini ochish;
- Scopus va Web of Science bazalari to‘g‘risida ma’lumotlar berib borish;
- ta’lim muassasasi yo‘nalishiga oid xorijiy ta’lim elektron bazalaridan foydalanish imkoniyatini yaratish;
- ARM foydalanuvchilariga elektron ta’lim bazalaridan foydalanish bo‘yicha treninglar, vebinarlar, seminarlar tashkil etish;
- ARM fondidagi eng noyob ilmiy asarlar to‘g‘risida ma’lumotlar berish;
- ARM da ilmiy nashrlar, badiiy adabiyotlar mualliflari bilan uchrashuvlar tashkil etish;
- Yangi qabul qilingan adabiyotlarning an’anaviy ko‘rgazmasi bilan birgalikda virtual ko‘rgazmasini tashkil etib borish;
- ARM foydalanuvchilari bilan doimiy aloqada bo‘lish, har bir ijtimoiy sahifada kutubxonachiga murojaat qilish imkonini yaratish;

ARM ning faoliyatida marketing va axborot xizmati faoliyatini yo‘lga quyish.

Kutubxona marketingi - kutubxona xizmatlari va mahsulotlaridan haqiqiy va potentsial foydalanuvchilarning ehtiyojlari va talablarini maksimal darajada oshirishga qaratilgan boshqaruv texnologiyasidir.

Marketing yuritilgan joyda albatta mahsulot bo‘lishi kerak. ARM larda marketing yuritish uchun asosiy mahsulot – bu axborot va xizmatlar. Bu tovarlar o‘ziga xos sifatga ega – bu mahsulot qancha sotilsa ham kamaymaydi.

ARM sharoitida bu juda mukammal masala. Chunki ARM asosiy xizmatlaridan “mahsulot” sifatidagi xizmatlarni aniq ajratib olish kerak. Marketing bo‘yicha xizmatlar kutubxonachining asosiy vazifasidan farq qilishi zarur. Chunki, ARM foydalanuvchilari o‘ziga xos, doimiy foydalanuvchilar bo‘lib, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, talabalar,

xodimlari, ilmiy izlanuvchilar bo‘lishi mumkin. Bularga mahsulotlarni sotish imkoniyati yo‘q, shu sababli ARM xodimlari o‘z asosiy vazifalaridan tashqari qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatishlari kerak bo‘ladi. Jumladan, nusxalash xizmatlari, bibliografik ro‘yxatlar tuzish, adabiyotlar tanlash, ma‘lumotlar bazasidan zarur ma‘lumotlarni qidirish, ma‘lumot qidirish uslublarini o‘rgatish, kompyuterda matn terish va h.k., shuningdek moddiy boyliklarning saqlanishini ta‘minlash maqsadida foydalanish uchun olgan axborot-kutubxona resurslarini o‘z muddatida topshirilmasa, ruxsatsiz olib chiqilsa, ARM foydalanish qoidalari boshqa talablari buzilgan hollarda jarimalar joriy etish mumkin.

ARM larning oldiga quygan maqsadini, vazifalarini va ularga erishish yo‘llarining aniq strategik rejalarini ishlab chiqish zarur.

ARM ning asosiy maqsadlari:

- ARM barcha foydalanuvchilarini (OTM professor-o‘qituvchilari, talabalari, xodimlari, shuningdek aholi vakillari) zarur axborot-kutubxona resurslari bilan ta‘minlash;
- OTM o‘quv, ilmiy va ijtimoiy faoliyatida faol ishtirok etish;
- ARM faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha (mahalliy va xorijiy o‘quv adabiyotlar ta‘minlanganligi, texnik jihatdan ta‘minlanganlik, foydalanuvchilar uchun sharoitlar, ish vaqti va boshqa barcha jabhalarini e‘tiborga olgan holda) aniq ish rejalar ishlab chiqish va bajarilishini ta‘minlash;

Zamonaviy ARM lari faoliyatini o‘zgartirishning asosiy vositalari doimiy harakatda yangilik – innovatsiyalar kiritib, ijobiy natijalarga erishish.

ARM larida hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan, uchinchi Renessans davrida o‘z faoliyatiga yangicha munosabatda bo‘lib, yangiliklar, o‘zgarishlar kiritib borilishi ARM xizmatlariga bo‘lgan talablarni saqlab qolish imkoniyatini beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni URL: <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-dekabrda “Oliy ta‘lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish to‘g‘risida”gi 967-son qarori URL: <https://lex.uz/ru/docs/-4628440?ONDATE=04.12.2019%2000>
3. Лаврик О., Т.Калюжная Поддержка научных исследований как одно из направлений научной библиотеки. Мир библиотек, 2022, №1, стр. 68-78
4. Редькина И.С., Библиотека в открытой инфраструктуре открытой науки: монография/СО РАН ГПНТБ. – Новосибирск, 2022- -223 с.